

## Sirdaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra viloyatda 1100 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 282 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,6 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 184 tasi (16,7 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 85 tasi (7,7 %) kiyim ishlab chiqarishga, 71 tasi (6,5 %) tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga, 64 tasi (5,8 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-aprel holatiga ko'ra





## II. Sirdaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4744,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 90,7 % ni tashkil etdi.

|                          | Hajmi,<br>mlrd so'm | Fizik hajm<br>indeksi, %da |
|--------------------------|---------------------|----------------------------|
| <b>Sirdaryo viloyati</b> | <b>4744,1</b>       | <b>90,7</b>                |
| Guliston sh.             | 327,2               | 100,6                      |
| Shirin sh.               | 1457,4              | 67,0                       |
| Yangiyer sh.             | 317,1               | 118,4                      |
| Boyovut tumani           | 642,0               | 112,6                      |
| Guliston tumani          | 133,5               | 106,6                      |
| Mirzaobod tumani         | 74,0                | 109,2                      |
| Oqoltin tumani           | 92,3                | 100,3                      |
| Sardoba tumani           | 120,1               | 112,1                      |
| Sayxunobod tumani        | 188,1               | 109,5                      |
| Sirdaryo tumani          | 916,5               | 106,6                      |
| Xovos tumani             | 89,3                | 107,4                      |

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahrida (75128,1 ming so'm), Sirdaryo tumanida (6568,7 ming so'm), Yangiyer shahrida (6438,1 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5086,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (89,0 %) ni tashkil etgan bo'lsa, Yangiyer shahrida (115,8 %), Boyovut tumanida (110,5 %), Sardoba tumanida (110,4 %), Sayxunobod tumanida (108,0%), Mirzaobod tumanida (106,7 %) qayd etilib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
yanvar-mart oylarida




**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2025-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 2781,8mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (58,6 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 18,1 mlrd so'm (0,4 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1918,3 mlrd so'm (40,5 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 25,9mlrd so'm (0,5 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2025-yilning yanvar-mart oylarida





### III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 19,1 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 75,5 % ga ko'paygan), 7,3 ming tonna kepak mahsulotlari (68,7 % ga ko'paygan), 157,66 ming litr 100 % spirt aroq mahsulotlari (34,1 % ga ko'paygan) hamda 1,2 ming tonnadori vositalari (55,9 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari                                                                                             | 2023-yil yanvar-mart* | 2024-yil yanvar-mart* | 2025-yil yanvar-mart |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|-----------------------|----------------------|
| Tarkibida alkaloidlar bo'lgan yoki bo'lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar, tonna | 800,0                 | 753,1                 | 1174,1               |
| Boshqa plastmassalardan (etilen polimerlaridan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi), tonna  | 4306                  | 2811                  | 4007                 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna                                                                       | 10,8                  | 10,9                  | 19,1                 |
| Don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar, ming tonna                   | 4,1                   | 4,3                   | 7,3                  |
| Boshqa o'simlikdan yog' olishda hosil bo'lgan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar, tonna                       | 1616,0                | 17,3                  | 2286                 |

\* 2023-2024-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

### Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,7 % (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,9 %), to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi– 19,2 %(2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,1 %), rezina va plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 9,0 %ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 6,1 %,ni(2024-yilning yanvar-mart oylarida 4,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,6 % (1,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 31,6 % (18,0 %), quyi texnologiyali 59,7 % (75,5 %)ni tashkil etgan.

### Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan qop mahsulotlari ishlab chiqarish yanvar-mart oylarida

Qop mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-mart oylarida 19 1162tonna narsa joylanadigan qoplar va paketlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 45,3 % ga oshdi), 4007tonna boshqa plastmassalardan (etilen polimerlardan tashqari) qoplar va sumkalar (jumladan konus shaklidagi) (42,5 % ga ko'paydi) ishlab chiqarildi.

### Sirdaryo viloyatida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan qoplar, tonnada yanvar-mart oylarida





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash  
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab  
chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 64,6 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 85,7 % ni tashkil etdi.

| Sanoat mahsulotlari                                                              | 2023-yil yanvar-mart* | 2024-yil yanvar-mart* | 2025-yil yanvar-mart |
|----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------|-----------------------|----------------------|
| Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s                                | 5033,9                | 5895,9                | 5432,9               |
| <i>shundan:</i>                                                                  |                       |                       |                      |
| <i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>                | 5033,9                | 4454,2                | 2192,9               |
| <i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i> | 0,0                   | 1441,7                | 3240,0               |
| Issiqlik energiyasi, ming gkal                                                   | 40,0                  | 37,5                  | 38,7                 |



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlashva taqsimlashda 30,5 % ga kamayish, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish 2,5 % ga ko'payish kuzatildi.

| Sanoat mahsulotlari                                                                               | 2023-yil<br>yanvar-mart* | 2024-yil<br>yanvar-mart* | 2025-yil<br>yanvar-mart |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|--------------------------|-------------------------|
| Suvni yig'ish, qayta ishlashva taqsimlashbo'yicha xizmatlar mlrd so'm                             | 0,3                      | 21,3                     | 19,7                    |
| Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar mlrd so'm | 9,4                      | 5,5                      | 6,2                     |

*\*2023-2024-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

### IV. Kichik biznes subyektlaritomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2094,7mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,2 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,4 % ni tashkil etgan.



## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli





tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**Metama'lumot uchun havola:**

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>  
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheh5446456>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**  
Sanoat va energetika  
statistikasi boshqarmasi

**Ijrochi:**  
Sh. Bakiyeva  
67 236-70-00 (2010)

**Манзил:**

